



11.12.2025-yil  
01-03-18/8715-son

Toshkent shahri, [redacted] tumani,  
[redacted]  
ko'cha, [redacted] istiqomat qiluvchi fuqaro  
N. Mamataxunovga

nusxasi: O'zbekiston Respublikasi  
Energetika vazirligiga  
(ma'lumot uchun)

2025-yil 2 va 3-dekabrda  
203890-s/25-sonli hamda 204409-s/25-sonli murojaatlar yuzasidan

Murojaatda keltirilgan "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJning 2023-yil 19-dekabrda 01-02-18/5209-sonli xati fuqarolardan tushgan murojaatga javoban "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" 2017-yil 11-sentyabrda O'RQ-445-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga rioya qilgan holda shakllantirilib, yuborilgan.

Mazkur xatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrda 1050-son qarori bilan tasdiqlangan "Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidolari" hamda amaldagi "Elektr qurilmalining tuzilishi qoidolari"ga muvofiq mavjud tarmoqlar muhofaza maydonidagi yerdan foydalanish tartibiga oid normalardan ko'chirmalar keltirilgan bo'lib, ular yerga bo'lgan egalik huquqini belgilamaydi.

Shu bilan birga, yuqorida ko'rsatilgan qoidalar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha jismoniy va yuridik shaxslarga bir xilda tatbiq etiladi.

Elektr qurilmalarining barqaror ishlashiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan omillar esa bizning vakolatimiz doirasida ekspluatatsiya jarayonida bartaraf etiladi. Vakolatimizdan tashqaridagi masalalar bo'yicha mahalliy hokimiyat yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilinadi va tegishli choralar belgilanadi.

Mavjud yerlarning qaysi bir shaklda birlashtirilishi yuzasidan yerdan foydalanish huquqini belgilovchi vakolatli tashkilotga murojaat etilishi maqsadga muvofiq.

Boshqaruv raisi  
o'rinbosari



F. Qurbonov